

DOSTONLAR TILIDA TURKIY QATLAMGA DOIR LEKSIK BIRLIKLAR

Ravshan Usmonov,

Shahrisabz davlat pedagogika institute 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq dostonlari tilining tarixiy-leksik asosi, xususan, turkiy qatlamga mansub leksik birliklarning qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Dostonlarning xalq ma'naviyati va milliy o'zlikni anglashdagi o'rni, ulardagi an'anaviy obrazlar va badiiy ifoda vositalarining tarixiy manbalar bilan bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqotda dostonlar tilidagi qadimgi turkiy qatlamning saqlanishi, ularning etimologik va semantik tadriji qiyosiy-tarixiy metodlar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: xalq dostonlari, turkiy qatlam, leksika, baxshichilik san'ati, epik qahramon, an'anaviy qoliplar, etimologiya, tarixiy lingvistika, badiiy tasvir vositalari.

Аннотация. В статье анализируется историко-лексическая основа языка узбекских народных дастанов, в частности, особенности употребления лексических единиц, относящихся к тюркскому пласту. Освещается роль дастанов в народной духовности и самосознании, связь традиционных образов и художественно-изобразительных средств с историческими источниками. В исследовании с помощью сравнительно-исторических методов показана сохранность древнетюркского пласта в языке дастанов, а также их этимологическая и семантическая эволюция.

Ключевые слова: народные дастаны, тюркский пласт, лексика, искусство бахши, эпический герой, традиционные формулы, этимология, историческая лингвистика, художественно-изобразительные средства.

Abstract. The article analyzes the historical and lexical basis of the language of Uzbek folk epics (dastans), particularly the usage characteristics of lexical units belonging to the Turkic stratum. It highlights the role of epics in national spirituality and self-identity, as well as the connection between traditional imagery, artistic means of expression, and historical sources. Through comparative-historical methods, the research demonstrates the preservation of the ancient Turkic layer in the language of dastans, along with their etymological and semantic evolution.

Keywords: folk epics (dastans), Turkic stratum, lexis, art of bakhshi, epic hero, traditional formulas, etymology, historical linguistics, artistic means of expression.

Kirish. O'zbek xalq dostonlari millatning ko'p asrlik tarixiy, madaniy va til boyligini o'zida mujassam etgan ulkan xazinadir. Bu asarlar nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Dostonlar tilida xalqning qadimiy turmush tarzi, dunyoqarashi va e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan tub turkiy leksika (qatlam) bugungi kungacha jonli va barqaror saqlanib qolgan.

Dostonlar tarkibidagi vatanparvarlik, mardlik va sadoqat kabi g'oyalar qat'iy lisoniy qoliplar va an'anaviy obrazlar vositasida ifodalanadi. Ayniqsa, epik qahramonlarning tashqi ko'rinishi, jang maydonidagi holati va ularning ajralmas hamrohi bo'lgan ot asbob-uskunalari tasvirida ishlatiladigan leksik birliklar o'zining qadimiyliigi va o'zgarmasligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada mazkur leksik birliklarning turkiy qatlamga xos xususiyatlari va ularning doston uslubidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek dostonlari tilini o'rganish masalasi o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab tilshunoslikning muhim yo'nalishiga aylandi.

Sh. Shoabdurahmonov dostonlar tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini tadqiq etar ekan, ulardagi an'anaviy qoliplar va poetik obrazlarning barqarorligini alohida ta'kidlagan.

H. Zarifov va V. Jirmunskiy kabi folklorshunos olimlar dostonlar syujeti va ulardagi tarixiy-etimologik qatlamlarning shakllanishini o'rganib, doston leksikasining xalq shevalari va qadimiy turkiy yozma yodgorliklar bilan aloqasini ko'rsatib berishgan.

S. Mutallibovning turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasiga doir ishlari dostonlar tarkibidagi qadimgi so'zlarning etimologiyasini aniqlashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, so'nggi yillarda dostonlar tilini kognitiv tilshunoslik va lingvopoetika nuqtai nazaridan o'rganayotgan tadqiqotchilar ham xalq og'zaki ijodi manbalarining o'zbek adabiy tili shakllanishidagi o'rnini yuqori baholamoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qo'yilgan masalalarni hal etish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalaniladi:

Qiyosiy-tarixiy metod: Dostonlardagi leksik birliklarni qadimiy turkiy lug'atlar (masalan, "Devonu lug'atit turk") va yozma yodgorliklar bilan solishtirish orqali ularning genetik asosini aniqlash. Lingvostatistik tahlil: Doston matnlarida turkiy va o'zlashma (arab, fors) qatlamning miqdoriy nisbatini va qo'llanish darajasini belgilash.

Kontekstual tahlil: Leksik birliklarning doston matni ichidagi badiiy-uslubiy vazifasini, ularning metafora, epitet va o'xshatishlar hosil qilishdagi ishtirokini o'rganish. Etmologik tahlil: Ayrim arxaik so'zlarning kelib chiqishi va semantik o'zgarishlarini tadqiq etish.

Ushbu metodlar majmuasi dostonlar tilidagi turkiy qatlamning nafaqat lisoniy boyligini, balki uning tarixiy-madaniy ildizlarini ham ochib berishga xizmat qiladi.

Natijalar. O'zbek xalq dostonlari xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning mazmunida real tarixiy voqealar, qahramonlik kurashlari, ijtimoiy munosabatlar va insoniy tuyg'ular badiiy umumlashtirilgan holda aks etadi. Dostonlarda vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, muhabbat, adolat va inson qadr-qimmatini kabi umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanadi. Shu sababli dostonlar xalqning ma'naviy tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Dostonchilik an'anasi o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan. Baxshi va oqinlar tomonidan avlod-dan-avlodga og'zaki tarzda yetkazilgan bu asarlar xalq orasida keng tarqalib, uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Doston ijrochilari nafaqat hikoya qiluvchi, balki xalq ruhiy holatini his etuvchi va uni badiiy shaklda ifodalovchi ijodkorlar bo'lgan. Shu bois baxshichilik san'ati ham o'zbek madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbek xalq dostonlarining ahamiyati faqat o'tmish bilan chegaralanib qolmaydi. Bugungi kunda ham bu dostonlar yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va axloqiy poklik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Dostonlar orqali yoshlar milliy tarix,

ajdodlar jasorati va xalqona dunyoqarash bilan tanishadilar. Bu esa milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Shuningdek, xalq dostonlari o'zbek yozma adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab yozma adabiy asarlar dostonlar syujeti, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalaridan ilhomlangan holda yaratilgan. Demak, dostonlar nafaqat og'zaki ijod namunasi, balki butun adabiy jarayonning muhim manbai hisoblanadi.

Qadimdan xalq o'tmishining badiiy ifodasi sifatida shakllangan epik asarlar uzoq asrlik tarixiy yo'li davomida ko'pgina o'zgarishlarga uchragan bo'lsa ham, ularda o'zgarishsiz saqlangan til birliklari anchagina miqdorni tashkil etadi. Bu birliklarni tarixiy yozma manbalar, qardosh turkiy va turkiy bo'lmagan (fors, tojik, arab va boshqalar) tillar bilan qiyosiy tahlil etish, shubhasiz, tilning tarixiy taraqqiyotini yana ham yorqinroq tasavvur etish hamda bu jarayonda og'zaki manbalarning tutgan o'rini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbek xalq dostonlari, umuman, og'zaki ijod manbalariga xos tarixiylik birgina lug'aviy yoki grammatik birliklar doirasida chegaralanmay, ulardagi qofiyalanish tartibi, she'riy satrlarning vazni, obrazlarning harakat va holatlarini ifoda etishda muhim bo'lgan tovushlar alliterasiyasi, shuningdek, sifatlash, mubolag'a, metafora, metonimiya, epitet singari badiiy ifoda va tasvir vositalarida ham o'z aksini topadi. Chunki doston ijodkori bo'lgan xalq o'z orzu intilishlarining ijrochilari sifatida dunyoga keltirgan epik qahramonlarning ruhiy holati, xulq-atvori, kuch-qudratini tasvirlashda ulkan hayotiy tajribasi va bor mahoratini ishga solgan holda badiiy tasvir va xilma-xil poetik ifoda vositalarining o'ziga xos mexanizmlarini ham yaratadi. Xalqona hayotiy tajribalarning folklorga ularning ilk ijodiy shakllanish davridanoq singdirib borilganligi mazkur manbalardagi uslubiy vositalarning ibtidoiy tasavvurlar moddiy manbasi bo'lgan tabiat va hayvonot olami bilan mantiqan bog'lanishida ko'zga tashlanadi. Dostonlarning tarixiy lingvistik asoslarini belgilashda muhim bo'lgan badiiy til vositalarining ilmiy ahamiyatini, o'zbek tilshunosligida va turkiyshunoslikdagi mazkur manbalar tilini o'rganishga doir dastlabki monografik tadqiqotlarning ana shu masalaga bag'ishlanganligi orqali ham anglash mumkin. Shu narsa ham xarakterliki, dostonlarda badiiy tasvir vositalarining ko'pchiligi an'anaviy xarakterga ega bo'lib, ular xalqning eng qadimgi badiiy tafakkurini aks ettiradi. Bu lingvistik an'anaviylik dostonlar syujetining qat'iy qolip holiga kelib qolgan epizodlarida takrorlangan holda uchraydi. Ular Sh.Shoabdurahmonov qayd etib o'tganidek, epik qahramonlarning xususiyatlarini ko'rsatuvchi poetik obrazlar, tradision o'xshatish va sifatlashlar, savol va javoblar tipidagi dialoglar, botirlarning otdagi safari va jang epizodlari, epik ot tasviri va ot asboblari tasviri bilan bog'liq an'anaviy qoliplarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qimmatini ularning lug'at boyligi bilan ham belgilanadi. Chunki "Xalq tilidagi har bir so'z va ta'bir folklor asarlarida o'zining munosib

o‘rnini topgan bo‘lib, bu boy leksika adabiy tilimizni boyitishda asosiy manbalardan hisoblanganidek, o‘zbek tili tarixini, shevalarning taraqqiyot yo‘lini o‘rganish uchun ham muhimdir”. Xalq dostonlarining ana shunday boy lug‘aviy imkoniyatlarini tadqiq etish borasidagi yirik ilmiy ishlar qatoriga S.Tursunovning “Alpomish” dostoni leksikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini kiritish mumkin. Zotan, bu tadqiqotda dostonlar leksikasining rang-barangligi ulardagi so‘zlarning lahjaviy turlarida, tarixiy-etimologik, leksik-semantik va turli tematik, funksional-stilistik qatlamlari hamda leksik-frazeologik imkoniyatlari doirasida aks etishi ochib beriladi. Bu beqiyos lug‘aviy birliklar birgina “Alpomish” dostoni va uning variantlari uchungina xarakterli bo‘lmay, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining turli janrlarida ham o‘z aksini topishi folklor asarlarining o‘ziga xos umumiy lingvistik qonuniyatlarga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Fozil shoir kuylagan “Alpomish” dostonidagi so‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatlarini maxsus tekshirgan R.Rasulov nomzodlik dissertatsiyasida predikativ xarakterdagi birikmalar, xususan, sodda va murakkab birikmalarning lisoniy xususiyatlariga, ularning matn tarkibidagi qo‘llanish holatlariga asosiy e‘tiborini qaratgan: bosh bo‘laklarning struktural-sintaktik xususiyatlari, uyushgan gaplarning qo‘llanishi va murojaatlarda modallikning ifodalanishi haqida so‘z yuritgan. Olim mazkur ishda so‘z birikmalarini besh turga: otli, fe‘lli, ravishli, ad‘yektiv hamda modal birikmalarga bo‘ladi va doston tilida boshqa birikmalarga nisbatan otli birikmalarning keng qo‘llanganligini ta’kidlaydi.

D.O‘rinboevaning U.Umurzoqov bilan hamkorlikda tuzgan “O‘zbek xalq dostonlari tilining alfavit-chastotali lug‘ati” avvalgi lug‘atdan farqli o‘laroq, so‘zshakllar chastota tartibida, ya’ni avval eng ko‘p qo‘llangan elementlar, davomida undan kam qo‘llanganlarini keltirish tartibida emas, balki har uch dostonidagi so‘zshakllar alfavit tartibida va bir vaqtning o‘zida chastotasi ko‘rsatilgan holda keltirilgan. So‘zshakllarning bu tartibda berilishi tadqiqotchi uchun ma’lum darajada qulaylik tug‘diradi va ularni uch doston misolida qiyoslash imkonini beradi.

“Alpomish” dostonining til xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida alohida o‘rganilgan. Asar matnidagi so‘zlarning sinkatik aloqasiga oid masalalarni qamrab olgan R.Rasulovning [1:25]nomzodlik dissertatsiyasi mazkur dostoniga bag‘ishlangan dastlabki ish sifatida baholanadi. Tilshunos olim o‘z tadqiqot ishida “Alpomish” dostoni matniga xos bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro aloqalari haqidagi qarashlarini bayon qilgan. Shuningdek, disseratsiyada doston matniga oid bo‘lgan sintaktik aloqalarni ikki guruhga bo‘lgan: 1) predikativ 2) nopredikativ. Tobe aloqani 4 turga ajratdi: bitishuv, boshqaruv, moslashuv va muvofiqlashuv.

Xulosa. “Alpomish” dostoniga oid yana bir tadqiqotni S.Tursunov [2:29] amalga oshirgan. Ta’kidlash mumkinki, mazkur tadqiqotda dostonning dialektal leksikasi ilk bor monografik planda tadqiq etildi. Dissertastiya ishi “Alpomish” dostonining leksik xususiyatlari” deb nomlanib, asar matnida professionalizmlarning qo‘llanishi, doston

leksikasiga xos funksional-stilistik xususiyatlar o'rganilgan. Umumiste'mol so'zlar hamda dialektal leksikaning o'ziga xos xususiyatlaridan iborat masalalarga e'tibor qaratilgan. Ya'ni tadqiqotchi dissertatsiya ishida folklor leksikasi bilan frazeologiyasiga oid bo'lgan muammolarni ham o'rganib, ularning umumxalq tilidan farqli bo'lgan xususiyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqot ishida leksik, grammatik, frazeologik dialektizmlarga e'tibor qaratilib, o'zbek adabiy tilida ekvivalentlarining uchrashi yoki uchramasligi tekshiriladi. Shuningdek, asar tilidagi kasbiy leksika geografik nomlar, turar joy nomlari, sport, harbiy terminlar, chorvachilik nomlari, qushlar nomlari kabi guruhlariga ajratilgan holda talqin qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане "Алпомиш": Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1975. – 25 с.
2. Турсунов С. Лексические особенности дастана "Алпамыш": Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990. – 29 с. Jirmunskiy V.M., Zarifov H.T. "Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos". – Moskva: OGIZ, 1947.
3. Madayev O., Sobitova T. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi". – Toshkent: Sharq, 2010.
4. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining etimologik lug'ati". – Toshkent: Universitet, 2000.
5. Qoshg'ariy Mahmud. "Devonu lug'atit turk" (Tarjimon S. Mutallibov). 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 1960-1963.
6. Sodiqov Q. "Eski o'zbek yozma adabiy tili". – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934